



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

2024- yil yanvar - avgust oylari
uchun dastlabki ma'lumot

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:*
74 228-30-37



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 666,1 mln. AQSh dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 569,8 mln. AQSh dollariga yoki 17,6 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar - avgust, mln. AQSh dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **2 075,3** -10,9 %

(2023- y.: **2 329,6**)



Saldo

2024- y.: **-1 056,2** (2023- y.: - 1 139,2)




Eksport

2024- y.: **515,1** -13,5 %

(2023- y.: **595,2**)

TSA dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **1 560,3** -10,0 %

(2023- y.: **1 734,4**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi 515,1 mln. AQSh dollariga (13,5 % ga kamaydi) va import hajmi 1 560,3 mln. AQSh dollariga (10,0 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 1 045,2 mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

XXR TSA – 617,7 Eksport: 53,3 Import: 564,4  29,8 %	Koreya Respublikasi TSA – 509,9 Eksport: 0,2 Import: 509,7  24,6 %	Rossiya Federatsiyasi TSA – 253,2 Eksport: 127,4 Import: 125,8  12,2 %	Qozog‘iston TSA – 181,0 Eksport: 175,2 Import: 5,8  8,7 %	Meksika TSA – 77,8 Eksport: - Import: 77,8  3,7 %
Braziliya TSA – 72,6 Eksport: 0,2 Import: 72,4  3,5 %	AQSH TSA – 66,0 Eksport: 0,9 Import: 65,1  3,2 %	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 61,1 Eksport: 45,5 Import: 15,6  2,9 %	Afg‘oniston TSA – 51,2 Eksport: 51,1 Import: 0,1  2,5 %	Turkiya TSA – 28,7 Eksport: 10,5 Import: 18,2  1,4 %

Andijon viloyati jahonning 67 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (29,8 %), Koreya Respublikasida (24,6 %), Rossiya Federatsiyasida (12,2 %), Qozog‘istonda (8,7 %), Meksikada (3,7 %) va Braziliyada (3,5 %) qayd etilgan.



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	XXR	434,8	828,0	756,5
	<i>Eksport</i>	51,0	45,3	74,9
	<i>Import</i>	383,8	782,7	681,6
	Koreya Respublikasi	1 118,4	940,2	637,0
	<i>Eksport</i>	0,6	0,2	0,3
	<i>Import</i>	1 117,9	940,0	636,7
	Rossiya Federatsiyasi	281,4	195,6	332,9
	<i>Eksport</i>	101,2	133,1	179,7
	<i>Import</i>	180,2	62,4	153,2
	Qozog'iston	288,6	357,6	265,2
	<i>Eksport</i>	283,3	351,4	257,3
	<i>Import</i>	5,3	6,2	7,9
	Meksika	16,3	132,8	92,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	16,3	132,8	92,6
	Braziliya	25,0	159,5	84,7
	<i>Eksport</i>	0,3	0,1	0,3
	<i>Import</i>	24,7	159,4	84,3
	AQSh	54,0	100,4	77,9
	<i>Eksport</i>	0,1	0,3	1,1
	<i>Import</i>	53,8	100,2	76,8
	Qirg'iz Respublikasi	266,9	167,9	89,5
	<i>Eksport</i>	244,7	142,3	67,4
	<i>Import</i>	22,2	25,6	22,1
	Afg'oniston	10,5	0,4	60,1
	<i>Eksport</i>	10,5	0,4	60,0
	<i>Import</i>	0,004	0,003	0,1
	Turkiya	76,5	82,1	40,4
	<i>Eksport</i>	31,2	31,8	12,3
	<i>Import</i>	45,3	50,2	28,0

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
Belarus Respublikasi		5,3	24,9	29,9
	<i>Eksport</i>	1,8	20,2	28,2
	<i>Import</i>	3,5	4,8	1,8
Slovakiya		7,8	17,5	28,0
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	7,8	17,5	28,0
Ozarbayjon		9,9	15,9	22,8
	<i>Eksport</i>	9,5	15,8	22,7
	<i>Import</i>	0,4	0,1	0,1
Hindiston		26,4	40,4	20,9
	<i>Eksport</i>	0,5	0,0	1,1
	<i>Import</i>	25,9	40,4	19,8
Pokiston		1,6	1,8	17,4
	<i>Eksport</i>	1,6	0,4	11,9
	<i>Import</i>	0,0	1,4	5,6
Polsha		7,8	10,8	13,4
	<i>Eksport</i>	0,9	0,5	1,0
	<i>Import</i>	6,9	10,3	12,4
Chexiya		12,9	11,2	13,3
	<i>Eksport</i>	0,1	-	-
	<i>Import</i>	12,8	11,2	13,3
Vetnam		0,4	7,8	9,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,4	7,8	9,2
Germaniya		27,0	30,1	9,7
	<i>Eksport</i>	0,6	0,7	0,3
	<i>Import</i>	26,4	29,4	9,3
Tayland		6,3	8,9	7,3
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	6,3	8,9	7,3



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-avgust)*




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 59,7 % ulush bilan 1 238,7 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani 0,7 % ulush bilan 13,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 26,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga kamaydi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 74,0 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, 633,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 463,0 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 170,1 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

Rossiya Federatsiyasi

TSA – 253,2
Eksport – 127,4
Import – 125,8



Qozog'iston

TSA – 181,0
Eksport – 175,2
Import – 5,8



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 61,1
Eksport – 45,5
Import – 15,6



Ozərbayjan

TSA – 15,6
Eksport – 15,5
Import – 0,1



Belarus Respublikasi

TSA – 21,6
Eksport – 20,1
Import – 1,5



Tojikiston

TSA – 3,0
Eksport – 2,4
Import – 0,6



Moldova Respublikasi

TSA – 1,3
Eksport – 1,2
Import – 0,1



Ukraina

TSA – 2,9
Eksport – 2,2
Import – 0,7



Turkmaniston

TSA – 0,7
Eksport – 0,1
Import – 0,6



Armaniston


TSA – 0,1
Eksport – 0,1
Import – -



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi, Rossiya Federatsiyasi (46,8 %), Qozog'iston (33,2 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (11,3 %) bilan qayd etildi.

ANDIJON VILOYATINING YEOIIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 517,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 368,2 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 148,8 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni 361 taga yetdi va ular tomonidan 515,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	595,2	515,1	104,9	86,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19,0	21,9	100,3	114,9	3,2	4,2
Ichimliklar va tamaki	3,3	1,7	3 449,4	51,4	0,6	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,4	1,3	127,9	53,2	0,4	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	47,5	5,9	8 762,0	0,1	9,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0002	0,05	30,7	24 209,5	0,00003	0,01
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	11,2	4,4	313,1	39,3	1,9	0,9
Sanoat tovarlari	133,1	130,1	80,1	97,8	22,3	25,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	258,9	166,4	130,3	64,3	43,5	32,3
Turli xil tayyor buyumlar	161,1	136,7	98,5	84,9	27,1	26,5
Xizmatlar	5,6	5,0	112,3	88,9	0,9	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,0 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunolari (32,9 %), turli xil tayyor buyumlar (26,5 %), sanoat tovarlari (25,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,2 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (9,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-avgust)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	19 819,3	108,6
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	889,3	4,2 b.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	684,3	16,8 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	380,9	92,2
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	1 702,3	51,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	503,0	28,8
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	387,5	137,6
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	262,0	116,0
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo	62,6	65,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	47 537,9	87,2 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	45,8	242,1 b.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3 422,7	33,6
Noorganik kimyo moddalari	326,7	108,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	188,1	58,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	182,0	141,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	159,4	189,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	112,3	64,5


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisba-tan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	121 256,0	100,8
Cho'yan va po'lat	3 297,5	50,5 b.
Metallardan tayyorlangan buyumlar,	2 727,5	93,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 264,1	77,4
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	884,8	93,2
Rangli metallar	352,8	40,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	208,8	4,0
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	121,4	11,2
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	33,3	8,9 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	111 062,4	65,5
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	45 679,5	59,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	5 662,4	117,5
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	3 266,7	62,0
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	218,1	75,9 b.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	213,9	82,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	131 284,2	88,1
Poyabzal	2 235,1	28,5
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 450,1	104,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	1 327,0	109,5
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	298,7	2,4 b.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	114,5	7,8
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari,	5,1	40,4
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	4,4	112,4

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga 563,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportdagi ulushi 77,2 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, XXR, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Ozarbayjon kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,5 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Qozog'iston	257,1	175,2	131,2	68,1	1	1
Rossiya Federatsiyasi	93,6	127,4	153,2	136,1	3	2
Xitoy	34,2	53,3	70,2	155,8	13	3
Afg'oniston	0,3	51,1	3,1	174,4 b.	4	4
Qirg'iziston	122,0	45,5	59,9	37,3	2	5
Belarus	13,4	20,1	10,8 b.	149,4	7	6
Ozarbajjon	12,6	15,6	192,3	123,3	8	7
Turkiya	16,2	10,5	65,2	65,0	5	8
Pokiston	0,2	6,0	12,9	33,2 b.	16	9
Tojikiston	15,2	2,4	10,9 b.	15,6	10	10
Ukraina	3,0	2,2	169,1	73,3	9	11
Moldova Respublikasi	0,8	1,2	38,6	149,0	11	12
AQSh	0,2	0,9	191,3	412,0	20	13
Xindiston	0,0004	0,8	0,1	2011,1 b.	6	14
Polsha	0,3	0,3	56,1	87,0	12	15
Latviya	0,5	0,3	117,9	59,9	15	16
Braziliya	0,1	0,2	128,5	188,6	19	17
Gruziya	0,0	0,2	198,6	11,2 b.	18	18
Koreya Respublikasi	0,0	0,2	2,0	22,5 b.	17	19
BAA	0,0	0,2	20,2	6,1 b.	20	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust)*



ViLOYat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 36,5 % bilan 266,7 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Xonobod sh. 0,2 % bilan 1,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-avgust oylarida 57,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023- yilning mos davriga nisbatan 18,8 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (51,6 %), Rossiya Federatsiyasi (29,7 %), Pokiston (7,8 %), Afg'oniston (4,3 %) hamda XXR (2,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi 21,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum yangi uzilgan 0,2 mln. AQSH dollari 0,4 ming tonna  38,9 % ↓	Karam 1,4 mln. AQSH dollari 8,1 ming tonna  14,3 % ↑	Bodring 1,8 mln. AQSH dollari 2,5 ming tonna  38,9 % ↑	Pomidor 2,3 mln. AQSH dollari 2,5 ming tonna  30,4 % ↑
Sabzi 3,6 mln. AQSH dollari 23,6 ming tonna  37,0 % ↑	Piyoz 0,6 mln. AQSH dollari 3,7 ming tonna  65,8 % ↓	Yeryong'oq 0,3 mln. AQSH dollari 0,5 ming tonna  16,0 % ↑	Qovun va tarvuz 1,8 mln. AQSH dollari 7,4 ming tonna  38,8 % ↓



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-avgust)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	47 224,8	10 859,7	51,6
 Rossiya Federatsiyasi	8 165,4	6 257,0	29,7
 Pokiston	391,5	1 632,4	7,8
 Afg'oniston	199,3	896,9	4,3
 XXR	712,5	496,9	2,4
 Turkiya	150,2	333,2	1,6
 Qozog'iston	157,5	241,9	1,1
 BAA	60,7	128,6	0,6
 Latviya	415,6	125,9	0,6
 AQSh	9,7	25,1	0,1
 Mongoliya	78,0	17,2	0,1
 Saudiya Arabistoni	46,2	12,5	0,1
 Polsha	42,8	11,6	0,1
 Ukraina	5,5	5,0	0,02
 Belarus	21,0	4,5	0,02

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-avgust oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 51,6 %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,7 barobar ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-avgust oylarida yakuni bo'yicha 252,7 mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 49,1 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 5,8 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (54,8 %), ip kalava (33,0), trikotaj mato (11,5 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 204 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 21 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, ming AQSh dollari)



Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi 5 007,1 ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,0 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (42,8 %), safarlar (turizm) (30,6 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (13,5 %) va transport xizmatlari (13,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




ANDIJON VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 1 560,3 mln. AQSh dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (59,4 %), sanoat tovarlari (18,6 %) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (6,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 177,6 mln. AQSh dollariga kamaydi va 1 516,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 44,0 mln. AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	1 734,4	1 560,3	113,2	90,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,0	17,2	115,5	157,0	0,6	1,1
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,2	159,1	137,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,3	14,2	113,7	125,8	0,7	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	13,9	106,0	2,4 b.	7,6 b.	0,8	6,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,1	0,9	296,8 b.	41,8	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	142,6	101,5	152,4	71,1	8,2	6,5
Sanoat tovarlari	310,6	290,4	94,4	93,5	17,9	18,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	1 137,6	926,4	119,6	81,4	65,6	59,4
Turli xil tayyor buyumlar	64,6	59,4	115,6	91,9	3,7	3,8
Xizmatlar	40,5	44,0	53,1	108,5	2,4	2,8



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 959,7	147,7
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4 963,2	406,0
Sabzavotlar va mevalar	2 040,6	99,5
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1 510,7	211,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 047,5	105,1
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	803,7	199,9
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	565,5	41,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	336,9	222,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	242,7	137,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	4 572,1	7 094,1
Probka va yo'goch-taxtalar	2 583,7	73,0
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	2 502,7	70,7
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)	2 054,7	71,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari	1 970,4	216,3
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	391,8	152,3
Metall rudalari va metall parchalari	101,7	818,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	93 049,2	1 613,6
Ko'mir, koks va briketlar	8 340,3	105,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	4 633,6	2 507,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	882,0	44,6
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	3,3	2,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	31 830,4	65,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	26 056,4	96,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	14 231,0	48,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	11 446,5	84,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	5 795,7	67,2
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	5 637,9	99,8

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	122 938,9	140,4
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	64 468,5	83,4
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	61 851,2	68,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	26 111,0	76,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8 738,2	78,0
Rangli metallar	4 302,0	68,0
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	881,3	27,6
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	629,4	185,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi	475,0	65,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	563 834,9	75,7
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	88 424,1	117,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	86 341,1	88,7
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	73 148,5	151,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	47 185,1	39,9
Metallarni qayta ishlash mashinalari	29 783,7	475,9
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	19 276,3	70,4
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	17 172,0	96,7
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	23 738,7	74,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	21 679,0	117,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8 806,4	94,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari,	3 348,2	110,2
Poyabzal	690,2	75,0
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	551,6	79,9
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	460,0	154,7
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	81,5	66,6



2024- yil yanvar-avgust natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi 9,7 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-avgust oylarida Andijon viloyati 65 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Meksika, Braziliya, AQSh va Slovakiya) jami importning 10 dan 9 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Xitoy	532,9	564,4	173,3	105,9	2	1
Koreya Respublikasi	671,0	509,7	75,4	76,0	1	2
Rossiya Federatsiyasi	49,4	125,8	40,4	2,5 b.	6	3
Meksika	94,6	77,8	33,6 b.	82,2	4	4
Braziliya	110,4	72,4	8,8 b.	65,5	3	5
AQSh	70,2	65,1	178,5	92,8	5	6
Turkiya	38,0	18,2	115,9	47,9	11	7
Slovakiya	13,7	15,9	2,4 b.	116,0	7	8
Qirg'iziston	17,3	15,6	111,7	90,2	10	9
Xindiston	30,0	14,5	163,8	48,2	8	10
Polsha	7,2	9,0	142,3	124,2	12	11
Chexiya	9,7	8,3	91,0	86,4	18	12
Vetnam	5,2	7,1	44,7 b.	137,3	9	13
Germaniya	23,6	6,6	2,5 b.	27,7	14	14
Qozog'iston	4,7	5,8	115,4	123,2	20	15
Pokiston	0,3	5,4	9,9 b.	18,6 b.	17	16
Tailand	6,0	5,3	122,9	89,4	16	17
Eron Islom Respublikasi	5,8	4,3	139,1	73,7	13	18
Italiya	8,3	3,6	115,8	43,7	15	19
Shveysariya	1,4	2,3	7,8	172,1	19	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-avgust)




ViLOYAT importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 67,1 % bilan 1 294,9 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani 0,1 % bilan 0,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)




2024- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 44,0 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 2,8 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 8,5 % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (91,3 %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (5,5 %) ga tegishli bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 290,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 18,6 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)

168,2 mln. AQSH doll.
ulushi – 57,9 %



XXR

63,0 mln. AQSH doll.
ulushi – 21,7 %



Koreya
Respublikasi

13,9 mln. AQSH doll.
ulushi – 4,8 %



Braziliya

8,8 mln. AQSH doll.
ulushi – 3,0 %



Slovakiya

6,4 mln. AQSH doll.
ulushi – 2,2 %



Meksika



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (122,9 mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (64,5 mln. AQSh dollari), rezina buyumlari (61,9 mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (26,1 mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.